

INGLIZ XALQ TABOBATIDA ISHLATILADIGAN FITONIMLAR

Matkarimova Gulira'no Abdullayevna

Mamun University Lecturer

Khiva City, Khorezm region, Republic of Uzbekistan

Gmail: guliranomatkarimova@gmail.com

Tel: +998914340340

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz xalq tabobatida qo'llanilgan fitonimlar – dorivor o'simliklar va ularning tibbiy maqsadlarda qo'llanish tarixi, zamonaviy tadqiqotlar bilan bog'liqligi, nomlanishi va kelib chiqishiga oid etimologik tahlillar yoritilgan. O'simliklarning xalq tabobatidagi o'rni, shuningdek, Buyuk Britaniyada fitoterapiyaga oid qadimgi yozma manbalar tahlil qilinadi. Fitonimlarning etimologiyasi, ularning xalq orasidagi qo'llanilishi va farmakologik jihatlari madaniyatlararo tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Fitonim, dorivor o'simliklar, ingliz xalq tabobati, etimologiya, xalq tabobati, fitoterapiya, fitokimyo, madaniyatlararo tilshunoslik.

Abstract. This article explores phytonyms used in English folk medicine, focusing on medicinal plants and their traditional usage, historical background, and relevance in modern research. It discusses the etymology of plant names, their functions in folk healing practices, and the significance of old herbal manuscripts in Britain. The article also highlights the pharmacological aspects and linguistic-cultural interpretations of selected medicinal plants.

Key words: Phytonyms, medicinal plants, English folk medicine, etymology, herbal treatment, phytotherapy, phytochemistry, intercultural linguistics.

Kirish. Insoniyat qadimdan buyon tabiat ne'matlaridan shifo izlab kelgan. Xususan, dorivor o'simliklar xalqlar hayotida muhim o'rin tutgan. Buyuk Britaniya xalqi ham qadimiy davrlardan boshlab o'simliklardan turli kasalliklarni davolashda foydalanib kelgan. Ushbu maqolada ingliz xalq tabobatida ishlatilgan ayrim mashhur o'simliklar, ularning etimologiyasi, tarixiy manbalardagi qaydlari va zamonaviy tibbiyotdagi o'rni tahlil qilinadi. Bundan tashqari, o'zbek va ingliz tillarida uchraydigan nomlarning qiyosiy tahlili orqali madaniy tilshunoslikdagi o'xshashlik va farqlar ham ochib beriladi.

Muhokama va natijalar: Odamlar qadim zamonlardan insonlar tabiat ne'matlaridan foydalana boshlaganidan buyon dorivor o'tlardan kasalliklarni davolashda foydalanib kelganlar. Bundan 3-4 ming yil ilgari Hindiston, Xitoy, Qadimiy Misr mamlakatlarida shifobaxsh o'simliklar haqida ma'lumotlar beruvchi asarlar yozilgan. O'zbekiston sharoitida dorivor o'simliklarni yetishtirish, ulardan

sifatli dorivor mahsulot tayyorlash hamda mahalliy florani yangi introdusent o'simlik turlari bilan boyitish yurtimizda dorivor o'simliklar turlarini soni ortishiga va introduksiya- iqlimlashtirish orqali dorivor o'simliklar xilma-xilligini ta'minlashga erishiladi. Dorivor o'simliklarni ko'paytirish va yetishtirishdan asosiy maqsad ona tabiatga zarar yetkazmaslik, farmasevtika sanoati korxonalarini ehtiyojini qondirish, madaniy holda yetishtirish, Yurtimiz tabobat amaliyotida mavjud bo'lmagan dorivor o'simliklarni iqlimlashtirib madaniy holda yetishtirishdir. Xulosa qilib aytganda, tabiiy giyohlardan va ulardan tayyorlagan dori vositalari tabiiy va xavfsiz bo'lganligi bois bemorlarga o'z samarasini beradi. Bu esa dorivor o'simlik turlarini tanlash, introduksiya qilish mahalliy floradagi turlar xilma-xilligini ko'paytirish va plantatsiyalarini tashkil etish bugungi kunning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada ham o'simlik dorilari keng qo'llaniladi, ammo ular ba'zan insonlar orasida turli xil munozaralarga sabab bo'ladi. Buning sababi ular ko'pincha sog'liqni saqlash mutaxassislari - shifokorlar, hamshiralari yoki farmatsevtlarning xabarisiz ishlatilganligidir. Ko'pincha universitet ta'limiga ega bo'lmagan tibbiy o'simlikshunoslar va odatda litsenziyalanmagan sog'liqni saqlash amaliyotchilari o'simlik dorilarini tarqatish bilan shug'ullanadilar. Bugungi kunda milliy tartibga solish tizimi Evropa Ittifoqining boshqa a'zo davlatlaridagi tizimga keng ma'noda o'xshaydi, ammo o'simlik dorilari asosan muqobil va an'anaviy tibbiyot elementi sifatida qaraladi. Tarixan, keng ko'lamlil mahsulotlar mavjud bo'lgan Londonning mashhur "Chelsea Physic Garden" ushbu mahsulotlar uchun mas'ul markaz va aptekarlar uchun o'quv markazi sifatida xizmat qilgan. Nikolas Kalpeperning "O'simlikshunoslik" kitobi va Jon Gerardning "O'simliklarning umumiy tarixi" nomli asari o'simliklarning tibbiy qo'llanilishini umumlashtiruvchi yozma manbalarning eng yaxshi namunalari hisoblanadi [1,13].

Buyuk Britaniyada Anglo-Sakson davridan beri tibbiy o'simliklardan foydalanishning hujjatlashtirilgan tarixi mavjud. O'ninchi asrda Angliyada tibbiy formulalarni qayd etgan uchta matn saqlanib qolgan: "Old English Herbarium", "Bald's Leechbook" va "Lacnunga". "Old English Herbarium"da 185 ta o'simlik sanab o'tilgan bo'lib, ulardan 140 tasi Anglo-Saksoncha nomga ega bo'lgan. Masalan, *Achillea millefolium* L. inglizcha nomi yarrow, Anglo-Sakson nomi "gearwe" bo'lib, bu o'simlik qorin og'rig'i, hazm muammolari, isitma, bosh og'rig'i, ilon chaqishi va siydik bilan bog'liq shikoyatlar uchun qo'llanilgan. Zamonaviy tadqiqotlar yarrowning tarkibida yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega bir nechta birikmalar mavjudligini ko'rsatdi, bu esa uning an'anaviy qo'llanilishini qisman tasdiqlaydi [2,28]. Shunga o'xshash Vels tilidagi qo'lyozma 1382 yildan keyin yozilgan - Llyfr Coch Hergest (Hergestning Qizil Kitobi) katta pergament qo'lyozma hisoblanadi. Muhimi, unda Vels nasr va she'riyat kolleksiyasi, xususan, Mabinogion hikoyalari saqlanib qolgan. Bu asarning muhim qismi, Myddfai, Velsda 500 yildan ortiq davom etgan tibbiy sulola

tomonidan tuzilgan o‘simlik davolash vositalarining tavsiflarini keltirib o‘tadi. 17-asrning eng mashhur ingliz dorishunosi (va astrologi) Nikolas Kulpeper (1616–1654) bo‘lib, u “Ingliz shifokori” nomi bilan mashhur – aynisa “Kulpeperning dorivor o‘simliklari” degan risolasi ham bu insonni juda mashhur qilgan. Bu o‘simlikshunoslik kitobi mashhurlikda Jon Gerardning “O‘simliklarning umumiy tarixi” asari bilan raqobatlashadi, ammo uning ortodoks amaliyotchilarni kibr bilan rad etishi uni ko‘plab shifokorlar bilan kelishmovchiligiga olib kelgan. Kulpeper Britaniyada o‘sadigan va insonni davolash yoki “tananing sog‘ligini saqlash” uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan o‘simliklarni tasvirlaydi. U, shuningdek, 1649 yilda nashr etilgan London farmakopeyasining 1618 yilgi lotin tilidan ingliz tiliga tarjimai bo‘lgan "A physicall directory" kironbi bilan ham tanilgan [3,6].

Keyingi o‘n yilliklarda o‘simliklarning farmatsevtik xususiyatlari ulardan ajratib olinishi va aniqlanishi mumkin bo‘lgan maxsus molekulalar tufayli ekanligi aniq bo‘lgach, bu tabiiy mahsulotlar kimyoviy strukturasi o‘rganish yoki, ayniqsa, o‘simliklar uchun, fitokimyo deb ataladigan tadqiqot sohasining rivojlanishiga olib keldi. Toza kimyoviy moddalar ajratib olinib, ularning tuzilishi aniqlanadi. Ba’zilar keyinchalik dori vositalariga aylantiriladi yoki tibbiy foydalanish uchun kimyoviy jihatdan o‘zgartiriladi. Bunday ilk toza dorilarning, zamonaviy tibbiyotda ishlatiladigan o‘simliklarning misollari quyidagilardan iborat:

Elderberry. Ilmiy nomi *Sambucus nigra*. O‘zbekchasi *Qoraqarag‘at*. O‘simlikning ilmiy nomi *Sambucus* qadimgi yunoncha $\sigma\alpha\mu\beta\acute{\upsilon}\kappa\eta$ (*sambúkē*) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, hushtak chalish uchun novdalaridan foydalanilganligi sababli qadimiy puflama asbobining nomidir. Inglizcha nomi Elderberry nomi anglo-sakson tilidagi *aeld* so‘zidan olingan bo‘lib, “yondirish” yoki “olov” degan ma’noni anglatadi, chunki o‘simlikning poyasi o‘yilgan va xavfsiz masofadan olovni puflash uchun ishlatilgan [4,448].

O‘zbek tilidagi qoraqarag‘at so‘zi o‘zbekcha “qora” sifati bilan tojikcha “qand” otidan tuzilgan bo‘lib, tog‘lik joylarda yovvoyi tarzda o‘sadigan buta o‘simligi va uning ovqatga solinadigan qoramtir mayda sershira nordon mevasi ma’nosini anglatadi [5,272].

Bundan tashqari quydagi o‘simlikning mevalari va gullari shamollash, gripp va turli xil infeksiyalarini davolash uchun ishlatiladi.

Chamomilla. Ilmiy nomi: *Matricaria chamomilla*. O‘zbek tilida *Moychechak (Romashka)* nomlari bilan mashxur. Chamomile so‘zi yunoncha $\chi\alpha\mu\alpha\acute{\iota}\mu\eta\lambda\omicron\nu$ (*chamaimēlon*) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “yer-olma” degan ma’noni anglatadi [6]. Buning sababini o‘simlikning olma hidi tufayli deb izohlashadi.

Ilmiy nomi tarkibidagi *Matricaria* lotin tilidagi ma’nolaridan biri bachadondir; *Matricaria* nomi bu turga berilganining sababi, *Matricaria* chamomile qadimgi o‘simlikshunoslikda hayzdan oldingi sindromlar bilan bog‘liq kramplar va uyqu

buzilishlarini davolash uchun ishlatilgan [7]. Hozirgi kunda ham o‘simlik tinchtiruvchi ta’siri bilan tanilgan, ko‘pincha xavotirlik, uyqusizlik va hazm qilish muammolarini davolashda qo‘llaniladi.

O‘zbek tilidagi “moychechak” so‘zi o‘zbek xalqiga xos an’anaviy nomlardan biridir. Bu so‘z asli forscha “moy” (yog‘) va “chechak” (gul) so‘zlaridan kelib chiqqan

Rosemary. **Ilmiy nomi: *Rosmarinus officinalis*. O‘zbek tilida *Bibariya (razmarin)* deb ataladi. *Rosmarinus* nomi lotincha *ros maris* yoki “dengiz shudringi” dan kelib chiqqan bo‘lib, dengiz purkagichining suvga yaqin o‘sadigan o‘simliklarda hosil bo‘ladigan shudring ko‘rinishidan kelib chiqqan. Keyinchalik u Bibi Maryam sharafiga “Maryam atirguli” yoki “bibariya” deb nomlangan. Ushbu assotsiatsiyani tushuntirish uchun turli xil hikoyalar yoki afsonalar mavjud.** An’anaviy ravishda xotira, qon aylanishi va antioksidant sifatida ishlatilgan [8,96].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz xalq tabobatida ishlatilgan o‘simliklar nafaqat tarixiy, balki ilmiy va tilshunoslik jihatidan ham katta qiziqish uyg‘otadi. Fitonimlarning madaniy va etimologik tahlili bizga ularning xalq hayotidagi o‘rnini, shuningdek, zamonaviy tibbiyotdagi ahamiyatini tushunishga yordam beradi. Bunday tahlillar madaniyatlararo tilshunoslikni boyitadi va an’anaviy bilimlarni ilmiy yondashuv bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rhys, John (1901). *Celtic Folklore: Welsh and Manx Volume 1*. Oxford : Clarendon Press (republished by Google Books: Forgotten Books) [a classic text on Celtic traditions in Wales including the texts from Myddfai]
2. Watkins, F. (2011) Abstract, *Pharmacological explorations in Anglo-Saxon herbs. Researching herbal pharmacology in history seminar, 13-7-2011, University of Reading* [This presents a historical perspective of herbal medicine]
3. Arber, A., ed. (1986) *Herbals: Their Origin and Evolution*. Cambridge University Press. Reprint. [A historical study of herbals as they were used throughout the ages]
4. [Niering, William A.](#); Olmstead, Nancy C. (1985) [1979]. *The Audubon Society Field Guide to North American Wildflowers, Eastern Region*. Knopf. p. 448. [ISBN 0-394-50432-1](#).
5. Shavkat Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (forscha, tojikcha birliklar va ular bilan hosilalar). “Unversitet” nashriyoti. Toshkent 2003. B 272
6. [χαμαίμηλον](#), Henry George Liddell, Robert Scott, *A Greek-English Lexicon*, on Perseus
7. "[Chamomile](#)". National Center for Complementary and Integrative Health, US National Institutes of Health. 1 May 2020.
8. *A Brief History of Thyme and other Herbs* by Miranda Seymour, 2002, p.96